

ARAB TILINI O'QITISHDA CEFR MEZONLARIGA ASOSLANGAN

BOSQICHLI YONDASHUV:

A1 DAN C2 DARAJAGACHA O'QUVCHILARNING
KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH

Sindarova Malika Aziz qizi

Samarqand Davlat Chet Tillar Instituti

“ Sharq Tillar ” fakulteti filologiya va fanlarni

o`qitish : arab tili yo`nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada arab tilini o`rgatishda CEFR (Umumiy Yevropa Til Mezonlari) standartlariga asoslangan bosqichli yondashuvning amaliy ahamiyatini yoritadi. A1 dab C2 gacha bo`lgan har bir daraja uchun to`rt asosiy til ko`nikmasi – tinglab tushunish, o`qish, yozish va gapirish ko`nikmalarini qiziqarli va interaktiv metodlar asosida bosqichma – bosqich o`rgatish strategiyalarini taklif etadi. Til o`rgatuvchilar uchun innovatsion yondashuvlar orqali samaradorlikni oshirishga qaratilgan nazariy va amaliy tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: CEFR, arab tili, bosqichli yondashuv, A1 – C2 darajalari, to`rt ko`nikma, til o`rgatish strategiyasi

Abstract: This article explores the practical importance of a step-by-step approach based on the CEFR (Common European Framework of Reference for Languages) standards in teaching Arabic. It presents stage-appropriate strategies to develop the four core language skills – listening, reading, writing, and speaking – from A1 to C2 using engaging and interactive methods. The paper offers both theoretical and practical recommendations aimed at improving the effectiveness of language teaching through innovative approaches.

Keywords: CEFR, Arabic language, step-by-step approach, A1–C2 levels, four skills, language teaching strategies

Kirish

Bugungi rivojlanayotgan zamonda til o‘rganish faqat grammatika va lug‘at boyligi oshirishdan iborat emas, Ayniqsa, arab tilini o‘rganishda xalqaro standartlarga moslashish, va o‘rgatish jarayonini qiziqarli, amaliy va bosqichma – bosqich tashkil qilish asosiy masalalardan biridir. CEFR – Common European Framework of Reference for Language tizimi butun dunyoda qo‘llanilib, til o‘rgatishda aniq mezon va kompetensiyalarni belgilab beradi. Bu yondashuv o‘quvchilarga o‘z maqsadlariga mos ravishda tilni samarali o‘rganish imkonini beradi. Maqo;ada CEFRning 6 ta asosiy darajalari (A1, A2, B1, B2, C1, C2) bo‘yicha to‘rt ko‘nikma – tinglab tushunish, o‘qish, yozish va gapirish ko‘nikmalarini qaysi bosqichda qandey rivojlantirish kerakligini tahlil qiladi.

Tinglab tushunish: O‘quvchilar muloqotda va audio materiallarda ma’lumotni tushunish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni rivojlantiradi.

O‘qish: Turli xil matnlarni o‘qish va ularni tahlil qilish qobiliyatini shakllantiradi.

Yozish: Fikrlarni aniq va ravon ifodalash uchun yozma ko‘nikmalarini o‘zlashtirish.

Gapirish: O‘quvchilarning fikrlarini ifodalash va muloqotda ishtirok etish qobiliyatini rivojlantirish.

Bosqichma – bosqich bilimlarni o‘rganish: A1 darajasi: Ushbu bosqichda o‘quvchilar oddiy iboralar va so‘zlarni o‘rganadilar. Tinglab tushunish va gapirish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun qisqa va sodda dialoglar, audio materiallar va o‘yinlar qo‘llanilishi tavsiya etiladi. Bu bosqichda sodda darajadagi ilmlarni o‘rganganligimiz bois, o‘quvchilar ko‘p ham qiynalishmaydi va zerikmasliklari ham

mumkin. Lekin dars jarayonlarini metodik yondashuvlar orqali o‘rganish va o‘rgatish, darsni o‘rganish jarayonini tezlashtiradi. Masalan: Odadta o‘quvchilar boshlang‘ich bosqichlarda ko‘proq e’tiborlarini so‘z yodlashga qaratishadi va tabiiyki, lug‘at boyligi yetarli bo‘lmagan o‘quvchilarning darajasini yuqorilashi ham qiyin. Shu sababli, turli o‘yinlar va vizuallik orqali shug‘ullanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

So‘z o‘yinlari: (Hangman yoki Memory) orqali yangi so‘zlarni o‘rganish.

Vizuallik: Kartochkalar yordamida so‘zlarni o‘rganish. Har bir so‘zga mos rasm qo‘sish, o‘quvchilarga yangi so‘zlarni yodlashda yordam beradi.

Tog usuli: Yangi so‘zlarni o‘z tilingizdagи o‘xhash variantini topish va tassavvur (hayolan voqealashtirish) bilan yodlash. Masalan: سيارة mashina, birinchi bo‘lib hayolga sayr ya’ni o‘zbekchda talaffuzi o‘xhash so‘z hayolga keladi. Shu ikki so‘zni tasavvurda birlashtiramiz. Masalan: (Mashina qanot chiqarib, osmonda sayr qilib yuribdi) shu usulda so‘z yodlash, lug‘at boyligini ancha o‘stiradi.

A2 darajasi: O‘quvchilar o‘zlarini oddiy vaziyatlarda ifoda etishga qodir bo‘lishlari kerak. Bu bosqichda o‘qish va yozish ko‘nikmalariga ko‘proq e’tibor qaratish lozim. O‘quvchilar qisqa matnlar yozish va o‘qish orqali ko‘nikmalarini rivojlantirishlari mumkin. Bu bosqichda o‘quvchilar o‘rgangan lug‘atlaridan foydalanib, matnlar tuza olishi, sodda matnlarni tarjima qila olishi va shu bilan birga textlar o‘qish jarayonida diqqatli bo‘lishi talab qilinadi. Chunki tarjima bilan birga gap tuzish strukturalarini o‘rganish, kuzatib borish, keyinchalik mustaqil ravishda xatosiz yoza olish uchun zarur. Tarjima va yozish ko‘nikmasini oshirish, grammatika ustida ishslash uchun quyidagi metoddan foydalanish mumkin:

Yashirin hikoya metodi: Qiziqrli matn (10–15 gapdan iborat hikoya)

- Matn parchalari (kartochkada, slaydda yoki kesilgan qog‘ozlarda)
- Har bir guruh uchun alohida to‘plam

(guruhlar hikoyani jamlashlari talab etiladi)

- Tayyorlangan “natija varaqasi” yoki Google Form (javoblar yozilishi uchun).

Bu usul ham qiziqarli ham samaralidir.

B1 darajasi: Bu bosqichda o‘quvchilar o‘z fikrlarini yanada murakkabroq tarzda ifoda etishga o‘rganadilar. Muloqotda ishtirok etish va fikr almashish uchun ko‘proq imkoniyatlar yaratish zarur. Tinglab tushunish va o‘qish ko‘nikmalari yanada chuqurlashtiriladi. Bu ikki ko‘nikmani rivojlantirish uchun asosan, ko‘proq shu tilda podcast va vloglar tomosha qilish va tinglash, o‘quvchining o‘zi ham kunlik tartib yoki rejalarini shu tilda gapirish, mavzuli loyihalar (turli mavzularda slayd va study bloglar) ko‘rish yoki o‘zi yaratish, interaktiv texnologiyalar (Wordwall, Kahoot) orqali o‘rganish mumkin.

B2 darajasi: O‘quvchilar murakkab matnlarni o‘qish va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirishlari kerak. Yozish ko‘nikmalarini oshirish uchun maqolalar va esse yozish tavsiya etiladi. Bu bosqichda ko‘proq o‘rganayotgan tilda yangiliklar, xabarlar, axborotlar tomosha qilish. Tandidiy fikrlashga asoslangan munozara mashqlarini o‘zbek tilida tushuntirib, mavzular bilan taqdim qilish. Jamoalarga bo‘linib debatlar tashkil qilish. Masalan: Kelajakda robotlar odam o‘rnini bosa oladimi? Ijtimoiy tarmoqlar hayotimizga foydalimi zararlimi? Kabi savollarga 2 guruhgaga bo‘linib javob berish. Har bir mavzu oldidan “ vocabulary bank ” بنك المفردات berish va muhokamadan so‘ng, “reflection writing” - تفكير تأمل بعد النقاش ya’ni o‘z fikr mulohazalarini bayon qilish orqali yozish va gapirish ko‘nikmalarini oshirish mumkin.

C1 darajasi: Bu bosqichda o‘quvchilar tilni professional darajada o‘zlashtirishlari kerak. Murakkab fikrlarni ifodalash va turli mavzularda muloqot qilish qobiliyatlarini rivojlantirish zarur. Bu bosqichgacha yozish va gapirish strukturalarini yaxshi o‘zlashtirish va amaliyotda ham qo‘llay olish kerak. Lug‘at darajasini oshirish ya’ni boshlang‘ich darajadagi so‘zlardan iloji boricha foydalanmaslik zarur. Masalan: مشكلة مساعدة – تعاون تحدي – muammo, qiyinchilik, cheklov, فكرة- إبنكار g‘oya, yangilik, yordam, hamkorlik kabi. Bundan tashqari, o‘rganayotgan tilda kino va dasturlar

tomosha qilish va bu tilmi haqiqiy ona tilida so‘zlashuvchilar bilan gaplashish foydali bo‘ladi.

C2 darajasi: O‘quvchilar tilni mukammal darajada bilishlari, murakkab matnlarni tushunishlari va o‘z fikrlarini komil, aniq ifoda etishlari kerak. Barcha ko‘nikmalarini mukammal darajada rivojlantirishga e’tibor qaratish lozim. So‘z iboralari, antonimlari, sinonimlari bilan ishslash, ommaviy nutq va munozaralarda ishtirok etish, til madaniyatini ham chuqur o‘rganish talab etiladi.

Xulosा:

CEFR (Yevropa til o‘rganish umumiyligi mezonlari) asosida bosqichma-bosqich yondashuv arab tilini o‘rgatishda o‘quvchilarning til ko‘nikmalarini samarali va qiziqarli tarzda rivojlantirish uchun juda muhimdir. Bu yondashuv har bir o‘quvchining til darajasiga moslashtirilgan o‘quv strategiyalarini qo‘llashni ta’minlaydi, natijada o‘rganuvchilar o‘z imkoniyatlari doirasida tilni osonroq va tushunarliroq o‘zlashtiradilar. Bosqichli yondashuv orqali o‘quvchilar tilning barcha asosiy ko‘nikmalarini — tinglash, o‘qish, gapirish va yozishni — birma-bir va muvofiq darajada rivojlantirish imkoniga ega bo‘ladilar. Shuningdek, bu metod o‘quvchilarga tilga bo‘lgan qiziqishni oshirishda ham samarali bo‘ladi, chunki har bir darajadagi mashg‘ulotlar ularning ehtiyojlari va qobiliyatlariga mos keladi. Shu tariqa, tilni o‘rganish jarayoni yanada interaktiv, motivatsion va samarali bo‘ladi. Natijada, CEFR mezonlari asosida ishlab chiqilgan darsliklar va o‘quv materiallari o‘quvchilarning tilni tizimli ravishda o‘zlashtirishiga yordam beradi, ularning nutq madaniyatini va kommunikativ qobiliyatlarini oshiradi. Bu esa o‘z navbatida, nafaqat tilni bilish darajasini oshirish, balki tilni amaliy hayotda samarali qo‘llay olishga ham imkon yaratadi. Shu bilan birga, o‘quvchilarning o‘z-o‘zini rivojlantirish va mustaqil o‘qish ko‘nikmalari ham shakllanadi, bu ularning kelajakdagi til o‘rganish jarayonlarini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, CEFR mezonlariga asoslangan bosqichli yondashuv arab tilini o'rgatishda nafaqat ta'lif jarayonining sifatini oshiradi, balki o'quvchilarning tilga bo'lgan qiziqishini kuchaytirib, ularni yanada faol va samarali o'rghanishga undaydi. Bu yondashuv zamonaviy til o'rgatish metodlari bilan uyg'unlashib, o'quv jarayonini nafaqat samarali, balki qiziqarli va doimiy bo'lishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Council of Europe. (2001). Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment (CEFR).
2. Richards, J. C., & Schmidt, R. (2010). Longman Dictionary of Language Teaching and Applied Linguistics.
3. Nation, I. S. P. (2001). Learning Vocabulary in Another Language.
4. <https://cyberleninka.ru/article/n/arab-tilida-cefr-mezonlari-asosida-yaratilgan-a1-darajadagi-o-quv-dasturlariga-qo-yiladigan-talablar>
5. <https://grantlar.uz/blog/cefr/>
6. <https://www.ijournal.uz/index.php/jartes/article/download/1551/2282/1771>
7. Al-Hassan, S., & Al-Shammari, M. (2018). Teaching Arabic as a foreign language: Integrating CEFR standards in the classroom. Journal of Language Teaching and Research, 9(3), 534–543.
8. Al-Mahrooqi, R., & Denman, C. (2017). Challenges in teaching Arabic language skills to non-native speakers. Arab World English Journal, 8(4), 236–249.